

SMTI da O'zbekiston-Hindiston hamkorligining istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilindi



Joriy yilning 9 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripovning Hindiston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Sanjay Verma bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati va rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, "Hindiston+Markaziy Osiyo" formati doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi.

So'nggi yetti yil ichida o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish tamoyillariga asoslangan Toshkent va Nyu-Dehli munosabatlari yuqori sur'atda rivojlanmoqda. Siyosiy aloqalarning yuqori darajadagi intensivligi hamkorlik kun tartibini yangi yo'nalishlar bilan doimiy ravishda to'ldirishni kafolatlamogda.

Hindiston tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Sanjay Verma O'zbekiston-Hindiston munosabatlarining bugungi ijobiy dinamikasini yuqori baholab, hozirgi bosqichda hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish uchun o'zaro manfaatli bo'lgan qator sohalarga to'xtalib o'tdi.



Xususan, hind diplomati Nyu-Dehli O'zbekiston iqtisodiyotini yanada raqamlashtirishga ko'maklashishga tayyorligini ma'lum qildi. "Hindiston dunyodagi eng "raqamlashtirilgan davlatlar"dan biri sifatida O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirishga yordam berishi mumkin", - deydi Sanjay Verma.

Koinotni o'rganish, turizm va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida ham katta imkoniyatlar mavjud.

Savdo aloqalarining ijobiy dinamikasi ham mehmon e'tiborini tortdi. Ularning hajmi 2022 yilda qariyb 700 million dollarga yetib, 40 foizga o'sdi. Shu nuqtai nazardan, milliy valyutalarda savdo hisob-kitob mexanizmini yaratish bo'yicha taklif ilgari surildi, bu esa o'zaro tovar ayirboshlash darajasini bir necha barobar oshirishga xizmat qiladi.

S.Vermanın fikricha, keyingi qadam Hindistonni O'zbekiston bilan umuman olganda Markaziy Osiyo bilan bog'laydigan transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirishni tezlashtirish bo'lishi kerak. Suhbatdosh Yevroosiyo mintaqasida asosiy transport arteriyalaridan biri bo'lgan "Shimol-Janub" xalqaro yo'lagini rivojlantirishni bu boradagi eng istiqbolli yo'nalish, deb hisoblaydi.

Shuningdek, qo'shma tadbirlarni muntazam o'tkazish, tahliliy maqolalar chop etish va O'zbekiston-Hindiston hamkorligini rivojlantirish uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan yangi yo'nalishlarni o'rganish uchun O'zbekiston va Hindiston tahliliy markazlari o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.